

T.C. KARABÜK ÜNİVERSİTESİ
ÖZBEKİSTAN DEVLET SANAT VE MEDENİYET ENSTİTÜSÜ
ÖZBEKİSTAN FERGANA DEVLET ÜNİVERSİTESİ

FİLOLOJİ VE KÜLTÜR ARAŞTIRMALARI

2

Kitabın tüm hakları Karabük Üniversitesine aittir
Karabük Üniversitesi Yayınları: 55

Editörler:

Prof. Dr. Nadirhan Hasan
Doç. Dr. Marufjon Yuldashev

Yayın danışmanları:

Doç. Dr. Güzel İsakova
Dr. Öğr. Üyesi Saidbek Boltabayev

BİLİM KURULU:

Prof.Dr. İbrahim Yuldashev (Özbekistan)
Prof.Dr. Abdusalom Umarov (Özbekistan)
Prof.Dr. İbrahim Hakkul (Özbekistan)
Prof.Dr. Nasimhan Rahmanov (Özbekistan)
Prof.Dr. Oltinoy Tojiboyeva (Özbekistan)
Prof.Dr. Dilmurod Kuranov (Özbekistan)
Prof.Dr. Murodkosim Abdiyev (Özbekistan)
Prof.Dr. Shoirah Ahmedova (Özbekistan)
Prof.Dr. Tavakkal Choriyev (Özbekistan)
Prof.Dr. Muhammadjon Hakimov (Özbekistan)
Prof.Dr. Nodirkhon Khasanov (Özbekistan)
Doç.Dr. Hamdam İsmailov (Özbekistan)
Doç.Dr. Seyfeddin Seyfullah (Özbekistan)
Doç.Dr. Atabek Rustambekoğlu (Özbekistan)
Doç.Dr. Ziba Kabilova (Özbekistan)
Doç.Dr. Cildiz İsmailova (Türkiye)
Doç.Dr. Zokirjon Rahimov (Özbekistan)
Doç.Dr. Sirderyahan Utanova (Özbekistan)
Dr. Öğr. Üyesi Saidbek Boltabayev (Türkiye)

ISBN 978-605-9554-51-0

Her hakkı mahfuzdur. Bu makaleler kitabında yayımlanan makaleler ve yazılardaki görüş ve düşünceler müelliflerinin görüşleridir. Kitapta yer alan yazıların dil, üslup ve bilimsel mesuliyeti yazarlarına aittir

MUNDARIJA / İÇİNDEKİLER

Takdim	12
Тожибоева О. Театр санъатида халқ бадний мероси / Tacibayeva O. Tiyatroda toplumsal poetik miras.....	14
Искандарова Ш. Тилшунослиқда сўз мустақиллиги муаммоси / İskenderova Ş. Dilbilimde sözcük bağımsızlığı sorunu.....	17
Касимов Н. Ўзбек халқ лапарларининг жанр хусусиятларига айрим чизгилар / Kasimov N. Özbek halk türkülerinin tür özellikleri.....	19
Лутфуллаева Д., Давлатова Р. Til ta'limida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning ahamiyati/ Lutfullayeva D., Davlatova R. Dil eğitiminde uygulamalı derslerin önemi	23
Мелиқўзиев И. Фильм яратилиши услуб ва тамойиллари / Melikoziyev İ. Film yarımında yöntem ve ilkeler.....	28
Юлдашев М. XX аср бошларида Туркистонда ташкил этилган маориф ва хайрия жамиятлари. / Yuldaşev M. XX. yüzyıl başında Türkistan'da kurulan eğitim ve hayır vakıfları.....	35
Isakova G. Winged word and their specific peculiarities / İsakova G. Güzel sözler ve onların özellikleri.....	39
Расулов Р., Абдуллаева Н. Дипломатия ва дипломатик нутқ / Rasulov R., Abdullayeva N. Diplomasi ve diplomasi dilinin özellikleri.....	42
Мухамедова С. Сравнительный анализ функционально-семантического поля ласкательности в узбекском и азербайджанском языках. / Muhamedova S. Özbek Türkçesi ve Azerbaycan Türkçesindeki sevecenlik bildiren sözcüklerin işlevsel ve semantik meydan açısından karşılaştırılması	46
Ганиева Ш. Фезл фраземаларинг темпорал валентлиги хақида / Ganiyeva Ş. Fiilli deyimlerin zamansal eşitliği hakkında.....	50
Сайфуллаева Р., Ҳамроева Х., Бутунбаева Т., Қаршибоева В. Озод Шарафиддинов публицистикасида қўлланган барқарор бирликлар хусусида / Sayfullayeva R., Hamrayeva N., Butunbayeva T., Karşibayeva V. Azad Şerefiddinov'un yazılarında kullanılan deyimler hakkında.....	53
Мухамедова Ў. Хореография ва бадний адабиёт / Muhamedova O. Koreografi ve bedii edebiyat.....	56
Ҳамроева Х. Эркин Воҳидовнинг “Ракқоса” шеъридаги бадний ифодалар / Hamrayeva H. Erkin Vahidov'un “Rakkâse” şiirindeki poetik ifadeler.....	59
Қосимова М. Ундовларнинг стилистик имкониятлари / Kasimova M. Ünlemlerin üslup imkânları.....	62
Убайдуллаев А. “Луғати туркий”да кўп маъноли сўзларнинг изоҳланиши / Ubaydullayev A. “Lûgat-ı Türki”de çok anlamlı sözcüklerin açıklanması.....	65

ILM - UMR BEZAGI, TAQDIR TUHFASI
İLİM - ÖMRÜN SÜSÜ, KADERİN HEDİYESİDİR

Sohiba Umarova,
Nizami Toshkent Devlet Pedagoji Üniversitesi

Özet: Yazıda Doğu bilimcilik, kaynak ve metin araştırmaları alanlarında tanınan bilim adamı merhum Profesör Suyuma Ganiyeva ile ilgili fikir ve mülâhazalara geniş yer verilmiştir.

Anahtar kelimeler: Suyuma Ganiyeva, Edebiyat, Kaynak, Eser, Araştırma, Metin

Turkiy xalqlarning o'ziga xos ma'naviyati, madaniyati uzoq moziydan boshlab yaratilgan yozma merosida aks etadi. Tabiiyki, yozma meros deganda beixtiyor turli zamonlarda yashab, hayotini ilm-fan rivojiga bag'ishlagan ajdodlarimiz, mutafakkir allomalarimiz ko'z oldimizga keladi. Ular ilm, fan, adabiyot, san'at soharlarida uchmas iz qoldirishgan. Ulug' shoir Alisher Navoiy so'zlari bilan aytganda:

Ki bu bahr ichrakim poyon anga yo'q,

Yetishmak qa'riga imkon anga yo'q.

Yetishgan el necha dur olg'on emish,

Ne oliyqadr durlar qolg'on emish.

Ilm ummoniga sho'ng'ib, undan durdonalar olish, xususan, mumtoz adabiyot tarixi bilan shug'ullanish – adabiyotshunos, matnshunos bo'lish, Sharq adabiyoti an'analari, nozik ifodalarini o'zgacha fasohat bilan ilg'ay oladigan, mashaqqatli mehnatni zimmasiga olish yuksak ma'naviyat egasining fazilatidir. O'zbek olimasi Suyuma G'aniyevada bunday fazilatlar mujassam edi. Uning davlatimiz hamda xorij mamlakatlarida e'tibor va e'zoz topganligining tag zamini shundadir.

Darhaqiqat, haqli ravishda ta'kidlanganidek, "XX asr o'zbek matnshunosligi, navoiyshunosligi va mumtoz adabiyotimiz matnlarini nashr etish borasida amalga oshirilgan ishlarni, bu sohada qo'lga kiritilgan yutuqlarni Suyuma G'aniyevaning nomi va faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi"¹⁸⁶.

Suyuma G'aniyeva 1932-yili 20-fevralda Toshkentning Somonbozor mahallasida dunyoga keldi. Bo'lajak olimasi 1939-1946-yillari 5-o'rta maktabda, 1946-1947-yillar O'rta Osiyo universitetining tayyorlov bo'limida, 1947-1952-yillari universitetning Sharq fakulteti Eron-afg'on filologiyasi ixtisosligi bo'yicha ta'lim oladi. Keyin esa u 1953-1956-yillari Leningrad davlat universiteti Sharq fakulteti afpiranturasini tamomlaydi.

Olimasi XX asr 50-yillarining oxirlaridan adabiyotshunoslik, navoiyshunoslik oid maqolalari bilan ko'rina boshladi. Yosh olimani mumtoz adabiyotimiz vakillari hayoti va ijodi, xususan, Lutfiy, Gadoiy, Husayn Boyqaro, Alisher Navoiyning boy adabiy merosini o'rganish masalalari qiziqtirardi. Uning ijodkorlar asarlarini chinakam o'rganishga kirishgani, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'lyozmalar asosida amalga oshirishni boshlagani birinchi maqolalaridayoq ko'ringan edi. Olimasi "Majolis un-nafois"ning III va IV majlisleri ilmiy-tanqidiy matni va adabiy tahlili" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini amalga oshirishda bir nechta qo'lyozma nusxalarni tahlil etadi. Tazkiraning shu majlisleri tanqidiy matnini tuzib chiqadi. 1961-yili esa "Majolis un-nafois"ning

¹⁸⁶ Haqqulov I. Ulkan salohiyat sohibasi // Imom al-Buxoriy saboqlari, 2007. № 1. – B. 22.

to'liq ilmiy-tanqidiy matnini nashr ettirdi. Tuzilgan ilmiy-tanqidiy matn shakli adabiy yodgorlik yozilgan yozuvda nashr qilinishi matn tuzishning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Shuning uchun olim "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matnini arav yozuvida nashrga tayyorlaydi. Ushbu ish Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish tajribalarining deyarli barchasini jamlash bilan birga olimaning o'ziga xos adabiyotshunoslikdagi tadqiq usul va tamoyillarini namoyon bo'lishi bilan e'tiborlidir.

Olima tazkira ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda **matnni sanalashtirish usuli** orqali adabiyot tarixini, xususan, Navoiy merosini o'rganishdagi noaniqliklarga ravshanlik kiritadi. Olima asarning yozilish davri bilan bog'liq manbalarni o'rganadi. Natijada olimo tazkiraning yozilish va qayta tahrir etilish davriga aniqlik kirikgan. Buni ko'pgina olimlar, xususan, turk olimi Kamol Eraslan ham qayd etadi¹⁸⁷.

Suyuma G'aniyeva tuzgan "Majolis un-nafois"ning ilmiy-tanqidiy matni tazkiraning asl nusxa variantiga eng yaqin manbadir. Shuning uchun ham keng jamoatchilik aynan shu tanqidiy matnga murojaat etishadi. Jumladan, 1968-yili Kobulda Muhammad yaqub Vohidiy Juzjoniy chop ettirgan "Devoni Sulton Husayn Mirzo" kitobida 1961-yili Suyuma G'aniyeva tayyorlagan "Majolis un-nafois"ning 8-majlisi matni to'la berilgan¹⁸⁸.

Olima o'zbek matnshunoslik an'analarga muvofiq asos qilib olingan barcha qo'lyozmalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi va **faol tanqidiy tanlab olish tamoyili** bilan ish tutadi. Tayanch nusxa matnini ham tanqidiy o'rganiladi. Olima oltita qo'lyozma nusxa matnini o'zaro solishtiradi hamda o'rtadagi farqlarni ilmiy-tanqidiy matn ilmiy apparatida ko'rsatib boradi. Aniqlashimicha, ilmiy tanqidiy matn ilmiy apparatidagi nusxalar o'rtasidagi farq 3000 tadan oshgani ma'lum bo'ldi¹⁸⁹. So'z, jumla, qo'shimcha, misra, ba'zan sana yoki sonlar o'rtasidagi farqlar ilmiy apparatda beriladi. Bu tafovutlar belgilab chiqish bir ish bo'lsa, ularni ilmiy ifodalash ikkinchi murakkab jarayondir.

Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlar to'plamining tayyorlanishida ustoz olib borgan matn sharhlarini tahlil etganimizda shathlash jarayonida keng qamrovli amaliy ish olib borilgani ma'lum bo'ldi. Suyuma G'aniyeva matn sharhlarini tayyorlash germenevtik yondashuv asosida ish olib boradi. Ustoz matn sharhini berishda adabiyotshunoslikdan tashqari tilshunoslik, dinshunoslik, tarix fanlariga ham murojaat etadi hamda matn bilan bog'liq deyarli har bir nuqtaga jiddiy e'tibor qaratgan. Olimaning matn sharhlarini shaetli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin bo'ladi:

1. Murakkab tashbeqli va ramzli baytlar sharhi.
2. Matnda tilga olingan asarlar va ularning mualliflari haqidagi ma'lumotlar.
3. Tarixiy va afsonaviy shaxslar tavsifi.
4. She'riy san'atlarga doir ma'lumotlar.
5. Muammoli yoki ilmiy tadqiqotlarga to'rtki bo'ladigan sharhlar.

Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, shu tasnivning o'zida ham yana bo'linishlar kelib chiqishi mumkin. Xususan, olimo **tarixiy va afsonaviy shaxslar** tasnifini berishda ikki usulni qo'llaydi:

¹⁸⁷ Qarang: Ali-sir Nevayi. Mecalisu'n-nefayis (Giriş ve Metin). 1-2. kitab. Hazirlayan Prof. Dr. Kemal Eraslan. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2001.

¹⁸⁸ Devoni Sulton Husayn Mirzo. – Kobul: Davlat ilmiy nashriyoti, 1968. – B.3-46.

¹⁸⁹ Qarang: Alisher Navoiy. Majolis un nafois. Nashrga tayyorlovchi S.G'aniyeva. – T.: Fan, 1961.

1. Navoiy tilga olgan ijodkorlar haqidagi matn ma'lumotiga qo'shimcha sharhlar berish.

2. Matnda Navoiy bevosita biror munosabat bilan tilga olib, lekin to'la to'xtalishni lozim topmagan o'rinlarni qayta sharhlash.

Olima Navoiy ijodini germinenivtik yondashuv usulida, yani sharhlash, qismni butun, butunni qism orqali tushunish nuqtai nazaridan yondashadi. Olima o'z fikrini va ilmiy xulosasini berishda asosiy tombaga tayanib ish tutadi.

Suyuma G'aniyevaning ilmiy qarashlarida tarixiylik prinsipiga asoslanib, tarixiy-madaniy tahlil, sotsiologik tahlil yondashuvlari o'ziga xos shaklda amalga oshirilgan. Xususan, olimaning "Navoiy va Husayn Boyqaro"¹⁹⁰ maqolasida bu ikki ulug' shaxs munosabatlari milliy-madaniy an'analar, shuningdek, tarixan haqqoniylikka murojaat etish orqali tahlil etilgan. Olima ilmiy xulosalarini o'sha davrga xos tazkira, manoqiblar bilan asoslagan. Olima Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatini yoritishda Husayn Boyqarodek shohning ulug' shoir shaxsiyatiga bo'lgan hurmati va e'tiborini qanchalik yursak ekanligini ochib berishni maqsad qilasi. Xondamimim yozishicha, Husayn Boyqaro Xorazmni obodonlashtirish va dehqonchilikni keng yo'lga qo'yish maqsadida uch ming xonadonni ko'chirish haqida farmon beradi. Ammo Navoiy xalq noroziligini anglab, bunga monelik qiladi. Suyuma Ganiyeva mana shu vaziyatda Husayn Boyqaro Navoiyning fikrini inobatga olgani, natijada Xorazmga uch ming xonadonning bir qismigina ko'chib ketganini keltiradi. Olima bu bilan Husayn Boyqaro nazdida Navoiy so'zlari qanchalik e'tiborli bo'lganligi tarixiy asardagi voqea asosida ochib beradi.

Olimaning ilmiy faoliyatida Navoiy dahosiga sadoqat asosiy mazmuni tashkil etadi. Shuning uchun ham o'zbek navoiyshunoslarining o'rta avlodi haqida gap ketganda, shubhasiz, Suyuma G'aniyevaning nomi tilga olinadi. Uning "Navoiy va zamonamiz", "Majolis un-nafois" ta'sirida yozilgan tazkira", "Navoiyning maktublari majmuasi", "Navoiy lirikasi", "Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asari" kabi maqolarida chuqur ilmiy ishlanishlar qo'lyozma manbalar asosida amalga oshirilgani ma'lum bo'ladi. Olimaning harakatlari tufayli Alisher Navoiyning dastxati topildi. Shoir qo'li bilan ko'chirilgan bu devon nashr etildi.

...Umr degan karvon yillar va yo'llar osha orzu-umidlarimizni ortib, siljib bo'averadi. Ustoz Suyuma G'aniyeva hayotida doimo ilm-ma'rifatga intildi. Uni tinimsiz izlanish, yangi-yangi reja, niyatlar, maqsadlar bilan yashash kayfiyatida ko'rish shogirdlarga kuch bag'ishlardir. Ustozning rejaları ko'p edi. Ustoz Lutfiyning Turkiyada chiqqan "Devon"ni O'zbekistonda chiqqan nashri bilan qiyosiy o'rganib, nashr ettirishni mo'ljallagan edi. Af'suski, bular armongicha qolib ketdi...

Suyuma G'aniyeva el-yurt orasida hurmat bilan yashadi, yuksak mukofotlarga sazovor bo'ldi. Uning hayoti, ilmu irfoni, inson sifatidagi xislatlari barchamizga ibratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Asarlar. 12-jild. – T.: Fan, 1966.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: "Akademnashr", 2018.
3. G'aniyeva S. Alisher Navoiy: hayoti va ijodi. – T.:Fan, 1962.
4. G'aniyeva S. Navoiy lirikasi. – T.: O'zbekiston, 1967.

¹⁹⁰ Suyuma G'aniyeva. Navoiy va Husayn Boyqaro. Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. – T.: "Fan", 1968.

5. G'aniyeva S. Navoiy va Husayn Boyqaro. – T.:Fan, 1968.
6. G'aniyeva S. Nasr va badiyat: "Munshaot" asosida. – T.:Fan, 1981.
7. Devoni Sulton Husayn Boyqaro. Yig'ma-qiyosiy matn. Nashrga tayyorlovchi H.Jo'rayeva. – T.: "Mumtoz so'z", 2016.

ÖZBEK AKADEMİSYENİ İBRAHİM HAKKUL'UN İLMİ-EDEBİ ÇALIŞMALARI

ELİF DOĞANAY*

ÖZET

Özbekistan, kadim tarihinden bu yana bilim, kültür ve sanat merkezi olmuştur. Semerkant, Buhara, Merginan, Tirmiz gibi birçok şehirlerinde çok büyük bilim adamı yetişmiştir. Günümüzde de kıymetli bilim adamları yetişmekte ve faaliyetlerini sürdürmektedir. Prof. Dr. İbrahim Hakkul da bugün Özbekistan Bilimler Akademisinde çalışmalarına devam etmekte olan değerli bir bilim adamıdır. Klasik Özbek edebiyatı, tasavvuf edebiyatı, yeni Özbek edebiyatı gibi edebiyatın farklı dallarında çalışan, özellikle adı Ali Şir Nevâi araştırmaları ile duyuran İbrahim Hakkul; Türkoloji çalışmaları için kaynak niteliğinde çalışmalar yapmıştır. Biz de bu makalede İbrahim Hakkul'un bilimsel araştırmalarına yer vererek onu bilim dünyasına tanıtmayı amaçlıyoruz.

Anahtar Kelimeler: İbrahim Hakkul, Ali Şir Nevâi, klasik Özbek edebiyatı, tasavvuf edebiyatı.

GİRİŞ

Genel Türk edebiyatının büyük ismi Ali Şir Nevâi hakkındaki çalışmaları ile ünlü Özbek Türkü Prof. Dr. İbrahim Hakkul, Sovyet dönemi yıllarında hayata gözlerini açtı, tahsil gördü ve ilmi çalışmalarına yine bu dönemde başladı. Klasik edebiyat ve Ali Şir Nevâi hakkındaki çalışmaları esas olmakla beraber tasavvuf tarihi, tasavvuf ve yeni Özbek edebiyatı ve dünya edebiyatının büyük temsilcileri hakkında da çalışmaları olan araştırmacı Özbekistan Bilimler Akademisinde çalışmalarını sürdürmektedir.

Ali Şir Nevâi'yi faaliyetlerinin merkeze almasının sebepleri arasında; şairin sanatkarlığının yüksek, sanatını besleyen sosyal, siyasi ve fikri yönlerinin olması; aynı zamanda Ali Şir Nevâi'nin örnek şahsiyeti ve devlet görevinde bulunması, Sovyet döneminde Ali Şir Nevâi araştırmalarındaki hatalar ile bağımsızlık döneminde Ali Şir Nevâi araştırmadan gelmesi gereken noktalar gösterilebilir.

İbrahim Hakkul, bağımsızlıktan sonraki dönemden günümüzde de sanatsal metin şerhi ve tahlil problemlerine ağırlık vererek bütün klasik şairleri tasavvuf potasında eriten izahlara karşı çıkmış ve yanlış yapılan şiir veya beyitlerin sahih izahlarını yapmıştır. Özellikle Ali Şir Nevâi'nin dünya görüşü ve sanatsal yeteneğinin incelemenin doğru yönlerden nasıl yapılacağını belirlemiş ve akademisyenlere yol göstermiştir. Bilhassa Ali Şir Nevâi hakikatlerini açıklamak için büyük çaba sarf etmiştir, çünkü ona göre Ali Şir Nevâi hakikatlerine giriftar olan kişi özünü keşfedebilen kişidir.

İbrahim Hakkul; akademik çalışmaları yanı sıra popüler kitle için de çalışmalar yapmıştır. Çünkü her şeyden önce Ali Şir Nevâi'nin fikirlerinin geniş kitlelerce bilinmesini ister. Bu amaçla da makale, kitap, çeviriler hazırlamış; TV, dergi ve radyo programlarında yapılan söyleşilere konuk olmuş; engin bilgisi sebebiyle farklı akademik kitapların müellifleri tarafından kendi kitapları için ön söz yazılması istenmiş; birçok değerli akademisyen yetiştirmiş, farklı ilmi görevlerde yer almıştır.

Bu makalede Türkoloji sahasında kaynak niteliğinde çalışmalar yapan İbrahim Hakkul'un hayatı, tahsili, bilimsel görevleri ve ilmi-edebî çalışmaları hakkında bilgi verilecektir.

1. Hayatı ve Tahsili

* Türk Dili ve Edebiyat Öğretmeni, Mavi Umut Eğitim Kurumları, İstanbul Üniversitesi SBE Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Ana Bilim Dalı Tezli Yüksek Lisans Mezunlu, 2016., elifdoganay.91@gmail.com